



O'ZBEKISTON PREZIDENTI AQSH DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23-oktabr kuni AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) administratori Samanta Pauer boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Delegatsiya Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSHning vazirlar darajasidagi taraqqiyot masalalari bo'yicha uchrashuvda ishtirok etish uchun mamlakatimizda bo'lib turibdi.

Konstruktiv va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbekistonda USAID bilan hamkorlikda sog'liqni saqlash, ta'lim, "yashil" energetika, agrobiznes va boshqa yo'nalishlarda bir qator loyihalar ro'yobga chiqarilgani va davom ettirilayotganini ta'kidlash joiz.

Suhbat chog'ida joriy yilning sentabr oyida Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasi sessiyasi doirasida bo'lib o'tgan "C5+1" formatidagi davlat rahbarlari sammitida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish yuzasidan fikr almashildi.

O'ZA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

HUUDDLARDA ICHIMLIK SUVI TA'MINOTINI YAXSHILASH CHORALARI BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 23-oktabr kuni hududlarda ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv tizimini yaxshilash, oziq-ovqat ekinlarini ekish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan hududiy va ijtimoiy dasturlarda ichimlik suvi ta'minoti alohida o'rin egallaydi. Bu borada xizmat sifatli va doimiy bo'lishi uchun narx mutanosibligi muhim.

Tahillarga qaraganda, bugungi kunda 1 kub metr ichimlik suvi tannarxi Toshkent shahrida 448 so'm bo'lgani holda Namanganda qariyb 3 ming so'mni, Samarqand va Navoiyda 2 ming 600 so'mni tashkil qiladi.

Suv ishlab chiqarish tannarxida elektr energiyasi ulushi respublika bo'yicha o'rtacha 27 foiz. Lekin Farg'ona, Namangan va Toshkent viloyatida bu ko'rsatkich yuqori.

Ma'lumki, yurtimizda muqobil energiyadan foydalanishni kengaytirish maqsadida korxonalar va aholi xonadonlarida quyosh panellari o'rnatilmoqda. Lekin yiliga 880 million kilovatt-soat elektr iste'mol qiladigan suv ta'minoti korxonalarining bu boradagi ishi sezilarli emas.

Davlatimiz rahbari viloyat hokimlariga ichimlik suvi tannarxini arzonlashtirish vazifasini qo'yar ekan, bunda eng katta manba suv korxonalarini ishlatadigan elektrning bir qismini "yashil energiya"ga o'tkazish ekanini ta'kidladi.

Masalan, hozirda suv korxonalarida 1 kilovatt-soat elektrni 900 so'mdan sotib olyapti. Quyosh stansiyalarida ishlab chiqarilgan elektr narxi esa o'rtacha 350-400 so'm, ya'ni 2 barobardan ziyod arzon. Investirlarni jalb qilib, suv inshootlari atrofidagi bo'sh maydonlarda quyosh panellari o'rnatish mumkin.

Shuningdek, eskirgan ichimlik suvi nasoslarini energiya tejamoq uchun almashirish zarurligi aytiladi.

O'ZA

Suv bo'yicha loyihalar ijmatini qayta ko'rib chiqish, ularda ishlatiladigan materiallarni mahalliy lashtirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tildi.

Sohadagi yangi loyihalar bundan buyon bevosita joylarga chiqib, aholining fikri va roziligi olinganidan keyin mahalliy kengashlarda muhokama qilinishi belgilandi. Loyihaga qancha mablag' ajratilgani, pudratchisi qaysi korxonada ekan, qachon ishga tushishi bilan bog'liq barcha ma'lumotlar e'lon qilib boriladi. Shu orqali bu borada ham jamoatchilik nazorati kuchaytiriladi.

Yig'ilishda bog' va tok qator oralariga ekin ekish tadbirlariga ham o'talib o'tildi.

Yurtimizda 331 ming gektar bog' va 153 ming gektar tokzor bor. Ularda qator oralaridagi yerlarga piyoz, sarimsoq, sabzi, bahor oylarida yer yong'oq, kartoshka, pomidor va bodring ekilsa, bozorlarimizga qo'shimcha mahsulot, aholiga daromad bo'ladi.

Shu bois, viloyatlarda yil yakunigacha 92 ming gektarga to'qsonbosti usulida sabzavotlar ekish, bunga urug'lik va suv yetkazib berish chora-tadbirlari belgilandi. Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlari iqlimga mos ekin turlari, agrotexnikasi bo'yicha ilmiy tavsiyalar berib boradi.

Belgilangan chora-tadbirlar suv xo'jaligi sohasining barqaror ishlashi va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga, pirovardida xalqimiz farovonligini oshirishga qaratilgan qayd etildi.

Yig'ilishda soha mutasaddilari va viloyat hokimlarining kun tartibidagi masalalar bo'yicha hisobotlari tinglandi.

MUNOSABAT

"BIR MAKON, BIR YO'L" — Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashga qaratilgan ulug'vor g'oya

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpingning taklifiga binoan 17-18-oktabr kunlari "Bir makon, bir yo'l" uchinchi xalqaro forumida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Pekin shahrida bo'ldi. Forumda savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, transport-kommunikatsiyaviy bog'liqlikni kuchaytirish, "yashil" taraqqiyot, raqamlashtirish kabi dolzarb masalalar muhokama qilindi. "Bir makon, bir yo'l" tashabbusining 10 yillik yubiley davrida ko'p tomonlama hamkorlikda erishilgan asosiy natijalar sarhisob qilindi, uning kelgusi taraqqiyoti va istiqbollari belgilab olindi.

Sharq-u G'arbni bog'lovchi eng qulay ko'pri

"Bir makon, bir yo'l" tashabbusi ilk bor "Ipak yo'li iqtisodiy kamari" nomi bilan XXR

Raisi Si Szinpin tomonidan 2013-yilning sentabr oyida e'lon qilingan edi. Xitoy rahbari o'sha payt Xitoydan Markaziy Osiyo, Rossiya orqali Yevropaga (Bolitiq dengiziga qadar), Markaziy Osiyo va



G'arbiy Osiyo orqali Fors ko'rfazi va O'rta yer dengiziga, Janubi-Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo va Hind okeaniga qadar yo'llar barpo etib, Yevropa-Osiyo iqtisodiy yo'lagini tashkil etishni taklif etgandi.

Davomi 3-betda

BUGUNING GAPI

REJALAR KATTA, KO'MIR YETARLIMI?

Ulug' shoirimiz Erkin Vohidov bunday yozgan edi: "Tilimizda "Gap ko'p — ko'mir oz" degan maqol bor. Men ba'zi davrlarda uning sharhini so'rab, o'rtaga masala tashlab ko'rdim. Har kim har xil sharh qiladi. "Urush yillarida ko'mir ozligida aytilgan bu", dedi birovi. Yana kimdir "Gapingda tosh bosadigan ma'no kam yoki gap ko'p-u, uning qo'ri yo'q", degan ma'no bilan izohladi... Menimcha, uning asli bundoq bo'lgan: "Gap ko'p-ku, umr oz". Ku yuklamasining keyingi so'zga qo'shilib ketishidan umr ko'mirga aylangan. Asliyatni tiklasak, dunyoning dardini aytishga umr yetmaydi, degan falsafiy xulosa chiqadi".

Aslida ham shunday bo'lishi mumkin. Lekin bizning bugungi mavzimiz bevosita qattiq yoqilg'i deb yuritiladigan, uy-joylarimizni isitish, elektr energiyasi hosil qilishda ishlatiladigan ko'mir bilan aholi hamda ijtimoiy inshootlarni ta'minlashning borishi haqida. Binobarin, qish yaqin, bundan buyon har xil so'vib boraveradi. Mavsumni har xil oqibat va talafotsiz o'tkazishda elektr, gaz quvvatlari va boshqa muqobil energiya manbalari bilan bir qatorda barqaror

ko'mir ta'minoti ham salmoqli o'rin tutadi. Chunki bugungi sharoitda nainki olis hududlardagi aholi, balki eng muhim ijtimoiy muassasalar va ishlab chiqarish korxonalarining ham kundalik faoliyati mazkur yoqilg'i ta'minotiga bog'liq. Shu bois, mutasaddi idoralar zimmasiga rejalarini o'z vaqtida bajarish, gapni emas, ko'mirni vaqtida yetkazib berish, talab darajasida ta'minlash vazifasi yuklatilgan.

Davomi 4-betda

XALQARO FORUM



YOSHLARNING GLOBAL CHAQIRIQLARI

DUNYO XALQLARINI TINCHLIK VA TARAQQIYOTGA UNDAYDI

Toshkentda "Yoshlar huquqlari: imkoniyatlar va himoya qilish mexanizmlari" mavzusida xalqaro forum bo'lib o'tdi. Tadbir Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ittifoqi hamda O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda o'tkazildi.

Davomi 3-betda

YUKSALISH PALLASI

TEKNOLOGIK YECHIM

Investitsiya iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojiga yo'naltiriladi

Bugungi davr iqtisodiyotning real sektorida ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, ilm-fan, ta'lim va sanoat o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish zarurligini ko'rsatmoqda. Shu bois, milliy innovatsion tizimni rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, ilmiy tadqiqotlar uchun inson kapitali, ilm-fan, innovatsiyalar va texnologiyalar transferini rivojlantirish, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimi asosiy yo'nalish sifatida belgilandi.



Davlatimiz rahbari 2022-yil 6-iyul kuni "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmon hamda ushbu hujjatda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, bu uchun zarur huquqiy, moddiy bazani yaratishga qaratilgan "2022-2026-yillarda O'zbekiston

Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorni imzolagan edi. Mazkur hujjatlar ijrosini ta'minlash borasidagi chora-tadbirlar soha rivojini yana bir pog'onaga ko'taryapti.

Davomi 5-betda

HUDUDLAR HAYOTI

MASOFA 240 KILOMETRGA, VAQT 6 SOATGA QISQARADI



aloqalar yanada rivojlanishi kutilmoqda. O'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan katta hajmdagi qurilish ishlari davomida hududda temir yo'l izlari yotqiziladigan yo'lda tuproq ko'tarish ishlari texnik talablar asosida bajarildi. Kerakli joylarga avtomobillar o'tishi uchun qulayliklar yaratilib, tunnellar ham qurildi. Qurilish-bunyodkorlik ishlari davomida tuman hududida 2 ta temir yo'l stansiyasi barpo etilib, vokzal binolari qad rostladi.

Daryobo'yi mahallasi hududida Amudaryo ustida olib borilayotgan qurilish ishlari "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining buyurtmasiga ko'ra "Boshtransloyiha" AJ tomonidan loyihalashtirilgan. "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining "Ko'priq qurilish trest"i unitar korxonasi ishchilari tomonidan qurilayotgan yangi ko'prikning uzunligi 412,7 metr, balandligi 11,5 metr, kengligi 8,5 metr.

Ushbu ko'priq qurilishiga bizning o'tyad tomonidan 70 kishi jalb qilingan bo'lib, Amudaryo daryosining chap tomoni, ya'ni Mang'it shahri qismidagi qurilish ishlari bajarilmoqdamiz, — deydi 13-ko'priq qurilish o'tryadi ish yurituvchisi Azamat Rahimov.

Shuningdek, 79 kilometr uzunlikdagi "Shovot — Gurlan — Jumurtov — Qorao'zak" temir yo'l liniyasini qurish ishlari ham jadal davom ettirilmoqda. Hozirgi paytda tuman hududidan o'tuvchi mazkur temir yo'l liniyasida shag'al tosh va po'lat izlarni yotqizish, elektrlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Yangi temir yo'l liniyasi ishga tushirilganidan so'ng Rossiya va Qozog'istondan yuk tashish masofasini 240 kilometrga, vaqtini esa

6 soatga qisqartirishga erishish ko'zda tutilgan. Aholi 1982-yildan buyon foydalanib kelayotgan Amudaryo ustidagi ponton ko'priki ayni paytda ancha eskirib qolgan. Yuk ko'tarish qobiliyati 10 tonna bo'lib, ko'prikdan yiliga 600 ming tonnaga yaqin yuk olib o'tiladi. Shuningdek, 3 milliondan ziyod aholi, 1 millionga yaqin avtotransport vositalari ham mazkur ko'prikdan foydalanadi.

Yangi va zamonaviy ko'priq ishga tushirilsa, yuk tashish hajmi ko'payib, yiliga 25 million tonnani tashkil etadi. Mintaqalarning rivoji natijasida iqtisodiy samaradorlik yiliga 100 milliard so'mga oshadi. Bundan tashqari, Qoraqalpog'istondan Xorazmga qurilish materiallari va boshqa turdagi mahsulotlarni yetkazib berish xarajati kamayadi. Bu esa yangi ijtimoiy obyektlar va infratuzilmalarni qurishga sarflanadigan mablag'lar tejalisini ta'minlaydi.

Zamonaviy texnologiyalar vositasidagi yangi turdagi qurilish konstruksiyasi asosida barpo etilayotgan ushbu ko'priq uzoq yillar mobaynida ezgu maqsadlar yo'lida xalqimizga xizmat qiladi. Mazkur ko'prikning ishga tushirilishi natijasida hududlar farovonlashib, aholining turmush darajasi yanada yaxshilanadi. Temir yo'l orqali yurtimizning boshqa hududlar bilan bog'lanishi tufayli esa nafaqat Amudaryoda, balki butun Qoraqalpog'istonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga keng yo'l ochiladi.

Minajatdin QUTLIMURATOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Shuningdek, ortiqcha mablag'lar hisobidan mahalladagi xonadonlarga quyosh panellari o'rnatish va ichimlik suv nasoslarini rekonstruksiya qilish ham rejalashtirilgandi. Bu ishlarga 1 milliard 300 million so'm mablag' ajratilib, ishlar "Tuproqqa'l'a maxsus qurilish" korxonasi tomonidan o'z vaqtida amalga oshirildi. Bundan tashqari, Jo'qorg'i Kenges Raisining sayyor qabulida tushgan murojaat yuzasidan ovulda chorva mollarini sug'orish uchun quduq qazish ishlari ham olib borilmoqda.

Boshqacha aytganda, ovulda bugungi kunda aholi daromadi o'sishiga erishish va salomatligini ta'minlash, buning uchun esa barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish, odamlarni o'z hayotidan rozi qilish asosiy maqsadga aylangan.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimida xususiy sektorning rolini oshirish, faoliyatini yaxshilash va aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish borasida qilinayotgan ishlar yuksak samara bermoqda.

Yaqinda Ellikqal'a tumanidagi "Qilchinqoq" ovul fuqarolar yig'ini hududida zamonaviy xususiy klinika o'z faoliyatini boshladi. Unga ko'p yillik

tajribaga ega ginekolog shifokor Erkaboy Eshxonov rahbarlik qilmoqda. — Yurtimizda tibbiyot sohasi tubdan isloh etilib, barcha harakatlar xalq manfaatiga qaratilgan ekan, aholi salomatligi masalasi ham islohotlarning bosh negizini tashkil etishi tabiiy. Tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini yuksaltirish aholi salomatligini mustahkamlash, har tomonlama sog'lom avlodni ulg'aytirishga xizmat qiladi, — deydi Ellikqal'a tuman hokimi Seydamat Avezov.

Zamonaviy klinikada ginekolog va terapevtik tibbiy xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan bo'lib, 10 nafar tibbiyot xodimi ish bilan ta'minlandi. Muassasaga

xorijdan zamonaviy jihozlar keltirildi. Klinikada bemorlar, qolaversa, tibbiyot xodimlari uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Malakali shifokorlar tomonidan barcha yo'nalishlarda sifatli tibbiy xizmat ko'rsatilmoqda.

Mamlakatimiz aholisiga tez tibbiy yordam ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2022-yil 16-iyundagi "Aholiga tez tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori sohada tub o'zgarishlar yasalishiga zamin bo'lmoqda.

Ushbu hujjatga muvofiq, tibbiy brigada bemorning ahvoli va kasallik turiga qarab, hududidan qat'i nazar, unga eng yaqin masofadan yuboriladi. Markaziy shifoxonalarda esa kunu tun ishlaydigan shoshiinch qabul bo'limlari tashkil etildi.

Respublika tez tibbiy yordam markazi Qoraqalpog'iston filialiga qarashli Amudaryo tuman bo'limida shifokorlar, feldsherlar, haydovchilarning bo'sh vaqtida dam olishi uchun xonalar, bo'lim mudiri, xo'jalik bekasi xonalari, eng zarur dorilarni saqlash xonalari ham mavjud.

— Bo'limimiz tarkibida 1 ta markaziy podstansiya va 11 ta shoxobcha mavjud bo'lib, ularda 11 ta umumtarmoq, 1 ta reanimatsiya, 3 ta feldsherlik brigadasi faoliyat yuritadi. Barcha

avtomashinalarga GRS o'rnatilgan, harakatlanishi dispetcher oldidagi monitor orqali onlayn kuzatib boriladi, — deydi Respublika tez tibbiy yordam markazi Amudaryo bo'limi mudiri Konstantin Shabayev. — Bo'limda faoliyat yurituvchi xodimlar jami 302 nafarni tashkil etadi. Ular tumanimiz aholisi tez tibbiy yordamga muhtoj bo'lib qolganda chiqiruvlarga zudlik bilan yetib borishga va tez tibbiy yordam ko'rsatishga doimo tayyor holatda turadi.

Tez tibbiy yordamga muhtoj bo'lib qolgan bemorlarga chaqiriq jarayonida aniq tashxis qo'yish uchun bo'limda 13 ta EKG apparati va og'ir holatdagi kasallar ahvolini yengillashtirish uchun zarur bo'lgan anjomlar, bemorlarga o'z vaqtida sifatli tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun 41 nomdagi dori-darmon ham mavjud.

Keyingi yillarda aholi orasida tez tibbiy yordamga ehtiyoj kuchayayotganini e'tiborga olib, yaqin kunlarda markaziy stansiyada yangidan tez tibbiy yordam brigadasi tashkil qilish rejalashtirilmoqda. Albatta, bunday chora-tadbirlar aholining sog'lig'ini muhofaza qilishga, zarurat tug'ilganda dard iskanjasida qolgan odamlarga tezkor tibbiy yordam berishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

Ma'lumki, Amudaryo tumanidagi Amudaryo daryosi ustidan o'tadigan temir yo'l va avtomobil yo'li ko'prigi qurilishi jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Ayni paytda mazkur qurilishning yakuniy bosqich ishlari amalga oshirilyapti.

Ushbu zamonaviy temir-beton konstruksiyali ko'priq ishga tushirilishi natijasida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati aholisi o'rtasida savdo-iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy

OBOD MANZILLAR



Asosiy muammo — ichimlik suv yetishmasligi

Nurobod tumanining "Olg'a" mahalla fuqarolar yig'ini Samarqand shahridan 130 kilometr, tuman markazidan 50 kilometr uzoqlikda joylashgan. Bu yerda besh mingdan ko'proq aholi yashaydi. Ularning 2410 nafari iqtisodiy faol, 213 nafari ishlash uchun xorij davlatlarga chiqib ketgan. Joriy yil boshida "Temir daftar"ga 8 nafar, "Ayollar daftar"ga 123 nafar ayol, "Yoshlar daftar"ga 9 nafar yigit-qiz kiritilgan.

Qishloq aholining aytishicha, bu yerda asosiy muammo ichimlik suv yetishmasligi. Iqlimga yaroqli yer osti suvi 300 metrdan ortiq chuqurlikda joylashgan. Shu sababli hamma ham katta suv nasoslari qurish imkoniga ega emas.

— Muammoni hal etish maqsadida bir necha bor tegishli tashkilotlarga murojaat qilidik, — deydi MFY raisi Norqizil Isayev. — O'tgan yili fuqarolar yig'ining markaziy ko'chasi bo'ylab "Suvoqova" tashkilotining tuman bo'limi tomonidan suv tarmog'i tortilib, quvurlarga qirqaq yaqin jo'mrak o'rnatildi. Aholi juda xursand edi. Ammo oradan bir oy o'tib, suv ta'minoti uzilib qoldi. Chunki ko'chadagi egasiz suv uchun hech kim to'lov qilmadi. Bu haqda "Suvoqova" tuman bo'limi rahbarlariga bir necha bor aytdik, ammo ular jim. Hozir ichimlik suv mahallaga qariyb 30 kilometr naridan mashinada olib kelinadi.

"Kimdir boshlashi kerak-ku..."

Shunday sharoitda ham qalovini topib, suvsiz cho'lda dehqonchilik qilayotganlar bor. "Olg'a elining maskani ziyo" fermer xo'jaligi a'zolari bugungi kunning ana shunday qahramonlari. Yo'zda issiq, qishda esa izg'irin bo'lishiga qaramay, odamlar dalada mehnat qilyapti.

"OLG'A"LIKLAR FAROVONLIKKA INTILIB, ILDAM QADAM TASHLAMOQDA

Joriy yilda kredit hisobidan fermer xo'jaligi rahbari Zahridin Qarshiyev 50 gektar lalmi yerda Turkiyaning "Afko" firmasining tomchilatib sug'orish texnologiyasini o'rnatdi.

— Qachongacha qo'limizni qovushitirib, bersang yeyman, bermasang o'laman, deb o'tiraveramiz? Axir kimdir, qachondir bu yerda ham shunday sug'orishni boshlashi kerak-ku, — deydi u. — Bu ishini birinchi bo'lib men boshladim. Umid qilamanki, kelajakda Nuroboddagi tomchilatib sug'orish tizimini joriy etadigan fermerlar ko'payadi. Kelgusi yili 500 gektar maydonda ana shunday texnologiya o'rnatmoqchiam.

Nuroboddagi xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivojiga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

— 2023-yilning sentyabr oyi holatiga ko'ra, ro'yxatga olingan kichik biznes subyektlari soni 1882 ta bo'lib, hozir 1468 tasi faoliyat ko'rsatyapti. Shuningdek, 2023-yilning yanvar-mart oylarida 106 ta yangi kichik biznes subyekti tashkil etildi, — deydi tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Sirojiddin Xo'jamiyorov. — Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan kichik biznes subyektlarining 597 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga, 465 tasi savdogaga, 224 tasi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 76 tasi qurilishga, 93 tasi uy-joy va umumiy ovqatlanish xizmatlariga ixtisoslashtirilgan.

Otlar bilan do'stlashgan tuyalar

Tuman hududining aksariyat qismi yirik va mayda shoxli qoramollar boqish uchun

juda qulay. Shu bois, bu yerda chorvachilik asosiy tarmoqlardan biri. Nurobodlik fermerlar yirik va mayda shoxli qoramoldan tashqari ot va tuya ko'paytirilmoqda. Masalan, "Hamfikr" fermer xo'jaligida ayni paytda 1600 bosh mayda shoxli qoramol, 100 bosh qorabayir ot, 11 bosh tuya bor.

— Bir yil avval bu tuyalarni qo'shni Navoiy viloyatidan olib keldandim, — deydi fermer xo'jaligi rahbari Bahodir Berdiyev. — Ular darrov daromad keltirishni boshladi. Chunki tuya suti ko'plab shifobaxsh xususiyatlarga ega va unga doimo talab katta. Bundan tashqari, tuya suvsizlikka chidamli. Bu cho'l sharoitida juda muhim. Otlarim esa ko'pkarilarda sovrin olyapti.

Xo'jalikning 343 gektar yaylovi, 500 gektar lalmi yeri bo'lib, unda boshqoli don yetishtiriladi. Kelgusi yilda fermer xo'jaligi rahbari tuyalar sonini uch barobar oshirish niyatida.

Tumandagi "Qushquduq Nurobod chorvasi" mas'uliyati cheklangan jamiyatida 1840 bosh nasli qo'y boqilyapti. Qo'ylar Fransiya taraqqiyot agentligining O'zbekistonda chorvachilikni rivojlantirish loyihasi doirasida Qirg'izistondan olib kelingan.

Oshayotgan eksport salohiyati

Aholining asosiy qismi dehqonchilik va chorvachilik bilan band bo'lishiga qaramay, so'nggi yillarda hududning sanoat salohiyati ham jadal rivojlanmoqda.

Tumanda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini tomonidan 2023-yilning yanvar-mart oylarida 62,4 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, o'tgan yilning mos

davriga nisbatan 66,1 foiz o'sdi. Bundan tashqari, 13,7 milliard so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, o'sish 2022-yilning shu davriga nisbatan 72,8 foizni tashkil etdi.

Tadbirkorlar uchun yaratilgan imtiyozlar tufayli bugungi kunda tumanda eksport qiluvchi korxonalar soni 11 tani tashkil etsa, ularning yettitasi dunyoning olti davlatiga 14 turdagi mahsulot sotlyapti.

Tuman salohiyatidan kelib chiqib, 2023-yil oxirigacha eksport ko'rsatkichlarini 16 million dollarga, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini 13,8 million dollarga yetkazish ko'zda tutilgan.

Xorijiy sarmoya jalb etilib, yangi loyihalar amalga oshirilgach, qishloq ahli uchun yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. O'tgan yili 1786 kishi ish bilan ta'minlangan bo'lsa, 2023-yilning o'tgan davrida 1800 ta yangi ish o'rni yaratildi.

"Zakovat": faxrli ikkinchi o'rin

Joriy yilda arzon uy-joylar qurish dasturi doirasida tumanda umumiy qiymati 3,1 milliard so'mlik loyiha amalga oshirilib, 16-umumta'lim maktabi sport zali hamda 17, 39 va 55-ixtisoslashtirilgan maktablar filiallari qurilib, foydalanishga topshirildi.

Manzilli dastur asosida mahalliy budget mablag'lari hisobidan 8, 17, 25, 43, 45 va 63-umumta'lim maktablari uchun qo'shimcha binolar qurildi.

Eng yaxshi sarmoya ta'limga, kelajakka kiritilgan sarmoyadir. To'g'ri, u darhol natija bermaydi. Lekin bu sarmoya evaziga Vatanimizning ertangi taqdirini, kelajagini belgilab beradigan yangi avlod shakllanadi.



G'ayritabiiy iqlim sharoitiga qaramay, nurobodliklarning kayfiyati yaxshi. Qayerga bormaylik, hamma joyda kelajakka katta umid va ishonch bilan qaraydigan insonlarni uchratdik, ular yuzidagi iliqlikni his qildik. — Barchasi insonga, uning aql-zakovatiga bog'liq. Agar u astoydil harakat qilsa, yadoq cho'l ham go'zal bog'u bo'stonga aylanadi, — deydi mehnat faxriysi Olim Sobirov. — Hozir buning uchun barcha sharoitlar yaratilyapti. Gap ana shu qulayliklardan oqilona foydalana olishda.

Cho'ldagi mo'jizalar

Bundan 5 yil avval Nurobod tumanida atigi 4 ta bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyat yuritardi. Keyingi 5 yilda 38 milliard so'm byudjet mablag'i hisobidan 700 o'rinni 10 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti qurilib, foydalanishga topshirildi.

Ana shulardan biri "Olg'a" fuqarolar yig'ini hududida joylashgan va yaqinda bolajonlarni o'z bag'riga qabul qilgan 160 o'rinni 11-davlat maktabgacha ta'lim tashkilotidir. — 7 milliard 600 million so'm budget mablag'i hisobidan barpo etilgan muassasada ayni paytda 30 nafar tarbiyachi mehnat qilmoqda, — deydi tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i Dilovar Amirova. — Ota-onalar bor-yo'g'i 92 ming so'm to'lov qiladi. Bolalar to'rt mahal ovqat bilan ta'minlangan. Bundan tashqari, muassasada chet tili, raqs, shaxmat, shashka to'garaklari faoliyat ko'rsatmoqda.

Eng olis "Mash'al" fuqarolar yig'ini hududida joylashgan 60 o'rinda mo'ljallangan 19-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti ham yaqinda foydalanishga topshirildi.

— Bu obyekt qishloq imzasi ahlining azaliy orzusi edi, — deydi muassasa rahbari. Xalq deputatlari tuman kengashi deputati Baxtigul Rasulova. — 1 milliard 320 million so'm sarflangan qurilish ishlari "Bekmurod baraka zamini" xususiy korxonasi tomonidan bajarildi. U foydalanishga topshirilishi bilan 22 kishi ish bilan ta'minlandi. Bog'chada ingliz tili, taekwondo, milliy kurash, musiqqa, rasm chizish to'garaklari faoliyat ko'rsatmoqda.

Nurobod tumani Samarqand viloyatining eng janubiy va eng yirik hududi. Qashqadaryo va Navoiy viloyatlari oralig'ida joylashgan bu manzil aholisi har doim qurg'oqchilik va suv resurslari tanqisligidan qiyonladi. Og'ir iqlim sharoitiga qaramay, tuman ahli tadbirkorlik, chorvachilik, dehqonchilik, infratuzilmani rivojlantirish orqali farovonlikka intilib yashamoqda.

Yormamat RUSTAMOV, jurnalist

MUNOSABAT

“BIR MAKON, BIR YO‘L” —

Buyuk ipak yo‘lini qayta tiklashga qaratilgan ulug‘vor g‘oya



Odil OLIMJONOV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Iqtisodiy
tadqiqotlar va islohotlar
markazi bosh ilmiy xodimi

tashkil etildi. Bu yilgi uchinchi forumda esa XRR Raisi Si Szinpin Ipak yo‘li jamg‘armasining kapitali yana 10,9 milliard dollarga ko‘paytirilishini e‘lon qildi.

O‘zbek-xitoy hamkorligi tarixi

O‘zbekiston — XRR hamkorligi juda uzoq asrlar oldin boshlangan. Ikki davlat o‘rtasida aloqalarni o‘rnatishga bo‘lgan urinishlardan biri 2200-yillar oldin yuz bergan.

Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti professori, Yevrosiy tarixi bo‘yicha yirik mutaxassis Lyudmila Borovkovaning “Eramizdan avvalgi II–I asrlarda “G‘arbiy o‘lka” davlatlari” nomli monografiyasida eramizdan avvalgi II–I asrlarda hozirgi Xitoyning bir qismi hududida ilk Xan saltanati nomi bilan hukm surgan davlatning Parg‘ana davlati bilan munosabat o‘rnatishga bo‘lgan ana shunday harakatlari bayon etilgan.

Eramizdan avvalgi 140-87-yillarda mazkur saltanatda 53 yil hukmdorlik qilgan Xitoy imperatori U-di (ba‘zi manbalarda Vu Di) Chjan Szyan nomli kimsani yurtimizga elchi qilib yubordi. Chjan Szyan eramizdan avvalgi 139-yili ilk Xan davlatidan yo‘lga chiqadi va turli qiyinchiliklar tufayli 10 yilda, ya‘ni 129-yili Parg‘anaga yetib keladi.

Elchi Parg‘ana rivojlangan va qudratli davlat ekanini ko‘rgan va bu haqda esdaliklarida yozgan. Bugungi O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikistonning Parg‘ana vodiysi qismida joylashgan Parg‘ana davlatida atrofi ikki qator himoya devorlari bilan o‘rab olingan 70 ta katta-kichik shaharlar mavjud bo‘lgan.

Parg‘ana davlati poytaxti Ershi shahri bo‘lib, uning xarobalari bugungi Marhamat tumani yaqinida hozirgacha ko‘zga tashlanib turadi. Bu davlatning boyligini, ayniqsa, unda ajoyib va chopqir otlar ko‘p ekanini eshitgan imperator U-di Parg‘anani bosib olish maqsadida eramizdan avvalgi

104-yili va 102-yillarda unga ikki marta bosqin uyushtiradi.

Lekin Parg‘ana xalqi o‘z yurtini qattiq himoya qiladi va dushman qo‘shinini ikki marta ham tor-mor etadi. O‘zidan ko‘p sonli dushmanlarga bas kelib, ularni yengishda Parg‘ana xalqining jangovar va yurtsevar odamlari asosiy rol o‘ynagan. Qolaversa, o‘sha davrda ota-bobolarimiz shaharlarni mustahkam himoya qo‘rg‘onlari bilan o‘rab olgani ham muhim bo‘lgan.

2200-yillar oldin yuz bergan mazkur urushning bitta o‘ta muhim ijobiy jihati ham bo‘lgan. Ya‘ni ana shundan keyin Parg‘ana va ilk Xan davlatlari xalqlari bir-birining borligini bilgan, ular o‘rtasida iqtisodiy munosabatlar o‘rnatilib, ikki yurt o‘rtasida savdo karvonlari qatnay boshladi. Bu yo‘l keyinchalik Buyuk ipak yo‘lining muhim bo‘lagiga aylandi.

Aloqalar shiddat bilan rivojlanmoqda

“Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi O‘zbekiston uchun ham har taraflama manfaatlari hisoblanadi. Shu bois, mamlakatimiz uning loyihalarida faol qatnashmoqda.

Jumladan, so‘nggi yillarda davlatlarimiz o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsion aloqalar barqaror sur‘atlar bilan rivojlanmoqda. 2017-2022-yillarda Xitoy bilan tovar ayirboshlash hajmi 4,7 milliard dollardan 8,9 milliard dollarga yetdi yoki 1,9 barabarga oshdi. 2023-yil ko‘rsatkich 10 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. 2022-yilda Xitoyning O‘zbekiston tashqi savdosidagi ulushi yilligida bu ko‘rsatkich 18,1 foizga yetdi va O‘zbekistonning savdo hamkorlari orasida Xitoy birinchi o‘ringa chiqdi.

O‘zbekiston Xitoyga mineral yoqilg‘i, neft mahsulotlari, ip-kalava, ipak, meva, sabzavot, mis va mis mahsulotlari, plastmassa eksport qiladi. Xitoydan,



asosan, mashina va jihozlar, elektromobillar, jumladan, shunday rumumdagi avtobuslar, plastmassa, kauchuk, temir, metall va metall mahsulotlari import qilinadi.

Xitoy O‘zbekistonning eng muhim investitsiyaviy hamkorlaridan biri hisoblanadi. 2017-2022-yillarda mamlakatimizga Xitoy investitsiyalarining umumiy hajmi 5 barabarga oshdi va 11 milliard dollarni tashkil etdi. Birgina 2022-yilning o‘zida 2,2 milliard dollar Xitoy investitsiyasi o‘zlashtirildi, O‘zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida Xitoy kapitali ishtirokidagi 1860 korxonada faoliyat ko‘rsatmoqda, bu 6 yil avvalgidan 2,3 barabar ko‘pdir.

Munosabatlarni yanada kengaytirish istiqbollari

Davlatimiz rahbarining Pekinga tashrif mobaynida xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollari yuzasidan qator uchrashuvlar o‘tkazildi. Jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyev XRR Raisi Si Szinpin va Xalq siyosiy maslahat kengashi Butunxitoy qo‘mitasi Raisi Van Xunin bilan muzokaralarida O‘zbekiston bilan Xitoy o‘rtasidagi do‘stlik va har tomonlama strategik sheriklik munosabatlari yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Ma‘lumki, O‘zbekiston — Xitoy o‘rtasida strategik sheriklikni yangi davrda rivojlantirish bo‘yicha besh yillik dastur amalga oshirilmoqda. Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik jadal rivojlanmoqda. Tovar ayirboshlashni yaqin besh yilda hozirgi 10 milliarddan 20 milliard dollarga yetkazish uchun barcha asoslar borligi haqida yakdil fikr bildirildi. Xitoy kompaniyalari va moliyaviy institutlari ishtirokida yuksak texnologiyalar, muqobil energetika, kimyo, mashinasozlik, metallurgiya, elektrotexnika tarmoqlarida, infratuzilmani modernizatsiya qilish va

boshqa yo‘nalishlarda bir qator yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Xitoyning kambag‘allikka qarshi kurashish tajribasini o‘rganish va joriy etish borasida samarali tajriba almashish va amaliy hamkorlik qilishga alohida e‘tibor qaratildi. O‘zbekiston Prezidenti Toshkentda Xitoyning yetakchi Sinxua universiteti va Pekin universiteti filiallarini ochishni taklif qildi. Uchrashuvda ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni qabul qilishga kelishib olindi.

Tashabbuslar qizg‘in qo‘llab-quvvatlandi

18-oktabr kuni davlatimiz rahbari “Bir makon, bir yo‘l” xalqaro forumining “Inson va tabiat uyg‘unligi yo‘lida “Yashil ipak yo‘lini” birgalikda barpo etish” mavzusidagi yalpi yig‘ilishida so‘zlagan nutqida qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Jumladan, mintaqamizdagi anomal ob-havo sharoitlari, tez-tez yuz berayotgan qurg‘oqchilik va chang bo‘ronlari, yerlarning shiddat bilan degradatsiyaga uchrashi va cho‘llanishi, bioxilma-xillikning yo‘qolishi ko‘rinishida namoyon bo‘layotgan murakkab ekologik vaziyat Markaziy Osiyoni jahondagi iqlim o‘zgarishi oqibatlaridan eng ko‘p zarar ko‘rayotgan mintaqalardan biriga aylantirgani ta‘kidlandi.

Shu bois, O‘zbekiston yetakchisi Markaziy Osiyoda “yashil” taraqqiyot sohasidagi maqsadlarga erishish yo‘lida fikr almashish va sa‘y-harakatlarni birlashtirish uchun 2024-yilda Samarqand xalqaro iqlim forumini o‘tkazish tashabbusi bilan chiqdi.

“Umid qilamizki, ushbu forum barqaror rivojlanish yo‘lidagi global xavf-xatarlarga javob topish uchun “Kelajak uchun — Samarqand muloqoti”ni tashkil etishda amaliy qadam bo‘lib xizmat qiladi”, dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Boshlanishi 1-betda

O‘tgan davr mobaynida tashabbus doirasida mazkur davlatlarda 3 mingdan ortiq loyiha amalga oshirildi. Ana shu loyihalardan biri Quvasoyning Pakana qishlog‘ida ish boshladi. “Art soft ceramics” nomli mazkur korxonada o‘zimizning tadbirkorlar hamda xitoylik muhandislar hamkorligida ishga tushirildi. Ya‘ni Xitoydan dunyo keramoplitlari sanoatidagi eng so‘nggi rumumdagi bosimli qo‘lqoplash uskunasi, pishirish qozonxonasi, printerlar keltirildi va qisqa muddatda yangi korxonaga barpo etildi.

Korxonada Quvasoy atrofi qishloqlaridagi ishsiz yoshlar va migrantlikdan qaytgan yigitlardan 300 nafari mehnat qilmog‘da. Yuqori sifatli keramoplitlari nainki import o‘rni bosmoqda, balki Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston kabi qator davlatlarga eksport ham qilinmoqda.

“Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi loyihalarning jami mablag‘i 1 trillion dollarga yetdi. BMBY ishtirokchilari bo‘lgan davlatlarda 135 dan ortiq savdo-iqtisodiy hamkorlik zonalar barpo etildi, ularda 40 millionga yaqin aholi kambag‘allikdan chiqarildi.

Konsepsiyani amalga oshirish uchun zarur investitsiyalarni ekspertlar taxminan 21 trillion dollarga baholamoqda. Shu bois, loyihani moliyalashtirish maqsadida 2014-yilda Xitoyda 100 milliard dollar kapitalga ega bo‘lgan Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki va ustav kapitali 40 milliard dollar bo‘lgan Ipak yo‘li jamg‘armasi

XALQARO FORUM

YOSHLARNING GLOBAL CHAQIRIQLARI

DUNYO XALQLARINI TINCHLIK VA TARAQQIYOTGA UNDAYDI

Boshlanishi 1-betda

Ushbu tadbir dunyo hamjamiyati tomonidan BMT kuni deb e‘lon qilingan tarixiy sana — 24-oktabr arafasida o‘tganida ham o‘ziga xos ramziy ma‘no bor. Shuningdek, mazkur forum O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-maydagi farmoni bilan tasdiqlangan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 75 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlar dasturi doirasida o‘tkazildi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori Akmal Saidov kirish so‘zida qayd etganidek, yoshlar forumi ana shunday muhim xalqaro sanalar, shuningdek, Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida BMT huzurida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha ishchi guruh tashkil etish to‘g‘risidagi tashabbusini amalga oshirish doirasida o‘tkazilgani bilan ahamiyatli.

Forumda, shuningdek, UNISEFning O‘zbekistondagi vakili v.b. Jofri Ijumba, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti almaddagi raisining Yoshlar masalalari bo‘yicha maxsus vakili Memet Jaku hamda Islom hamkorlik tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha mustaqil doimiy komissiyasi vakili Muhammad Laval Sulaymon va boshqalar so‘zga chiqdi.

BMTning Inson huquqlari bo‘yicha oliy komissari Folker Tyurk va Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi direktori Matteo Mekachchi esa forum qatnashchilarini videomurojaat orqali tabrikhladi.

Tadbirida so‘zga chiqqanlar ta‘kidlaganidek, bugun dunyo aholisining 16 foizini 15-24 yoshdagi navqiron avlod tashkil etadi. Yoshlar yangilanishlarni harakatga keltiruvchi kuch. O‘z salohiyatini yuzaga chiqarish va kelajak avlodlar hayoti uchun munosib dunyoni bunyod etish ularning zimmasidagi muhim vazifadir. Buning uchun ularga zarur sharoit yaratish, intilish

va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash lozim. BMT tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha kun tartibida ana shu yo‘nalishda ustuvor vazifalar belgilangan. Xususan, Barqaror rivojlanish bo‘yicha barcha 17 maqsad va ularga erishishga doir 169 vazifaning har birida yoshlarning manfaatli aks etgan.

Bundan tashqari, yoshlar ehtiyojini ro‘yoga chiqarish, ular salohiyatini rivojlantirish va huquqlarini kengaytirish maqsadida BMT tomonidan 2030-yilgacha “Yoshlarni jamiyat hayotiga jalb qilish orqali demokratiyani mustahkamlash” yoshlar strategiyasi qabul qilindi. O‘zbekiston ushbu strategiyani jadal suratlarda amalga oshirayotgan dunyoning o‘nta davlati qatoriga kirishi quvonarlidir.

Bugungi kunda yurtimiz yoshlari jamiyatdagi o‘zgarishlarning faol ishtirokchisi va modernizatsiyaning muhim resursi, iqtisodiy o‘sish va avlodlar farovonligini ta‘minlashning qimmatli insoniy quvvati, mamlakat barqaror rivojlanishini harakatga keltiruvchi asosiy qatlam hisoblanadi. Shu bois, mamlakatimizda yoshlarning yetuk va barkamol bo‘lib voyaga yetishi, zamonaviy mezonlar asosida ta‘lim va jamiyatga faol integratsiyalashuviga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda yoshlarning huquqlarini har tomonlama himoya qilish, ularning rivojlanishi hamda o‘z maqsadlariga erishishi uchun teng imkoniyatlar yaratilishi belgilandi. Bundan tashqari, Asosiy qonunning alohida moddasida iqtidorli yoshlarning davlat hisobidan oliy ta‘lim olish huquqi kafolatlandi.

Har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishida yoshlarning o‘rni muhim. Ana shu jihatlari e‘tiborga olinib, O‘zbekiston yoshlar masalasida xalqaro maydonda ham muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda. Shuningdek, yoshlar siyosati sohasida hamkorlikni mustahkamlash maq-

sadida Prezidentimiz tashabbusi bilan 2023-yil 15-sentabrda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari yoshlarni jamiyatning madaniy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga yanada teng jalb etish uchun shart-sharoitlarni ta‘minlashga qaratilgan “Yoshlarga oid siyosatning umumiy yo‘nalishlari to‘g‘risida bitim”ni imzoladi. Ushbu mintaqaviy hujjatni qabul qilishdan maqsad yoshlar siyosati sohasida hamkorlikni mustahkamlashdir.

Forumda so‘zga chiqqanlar ushbu xalqaro anjuman yoshlar siyosati, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish mexanizmlari bo‘yicha zaruri bilimlarga ega bo‘lish, o‘zaro tajriba almashish, dolzarb g‘oya va loyihalarni ro‘yobga chiqarish uchun qulay axborot-ma‘rifat va amaliy muhokama-munozara maydoni bo‘lganini aytib o‘tdi. Bunda xalqaro anjuman davomida siyosatchilar va jamoat arboblari, ilmiy-akademik doiralari namoyandalari, tadbirkorlar, O‘zbekiston va dunyo yoshlari vakillari o‘rtasida bo‘lib o‘tadigan jonli muloqotlar muhim ahamiyat kasb etgani qayd qilindi.

Forumning yalpi majlislarida yoshlar huquqlarini himoya qilishning xalqaro, mintaqaviy va milliy vositalari, mexanizmlari, xalqaro miqyosda yoshlar huquqlarini ilgari surish istiqbollari muhokama qilindi.

Tadbir yakunida yoshlar huquqlari bo‘yicha Markaziy Osiyo deklaratsiyasi ishlab chiqildi va muhokama qilindi.

Biz esa, o‘z navbatida, forumda ishtirok etgan yoshlarning taassurotlari bilan qiziqdik.

Azamat ABDURAHIMOV, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi:

— Tadbir juda qiziqarli va mazmunli o‘tdi. Unda dunyoning turli mamlakat-

lari, xususan, Markaziy Osiyo davlatlarida yoshlarning huquqini himoyalash, tengdoshlarimizning jamiyat hayotidagi ishtirokiga oid yangiliklar bilan tanishdik. Mamlakatimizda bu yo‘nalishda yuritilayotgan davlat siyosati, Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan loyihalar haqida ma‘lumot berildi. Tabiiyki, tengdoshlarimiz yurtimizda bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarga katta qiziqish bildirdi va o‘zaro hamkorlikni kengaytirish xususida fikrlashdi.

Mamlakatimizda o‘tgan ushbu nufuzli tadbir va unda kelishilgan vazifalarni ro‘yobga chiqarish, biz, yoshlarning zimmasiga ham ulkan mas‘uliyat yuklaydi. Bu jabhada ishlarga, avvalo, o‘qish, ilm-fan sohasidagi



Farzoda QAYUMOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi:

— Forum doirasida yoshlar huquqlarini muhofazalash, ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish borasidagi ustuvor vazifalar qizg‘in muhokamada bo‘lgani bejiz emas. Zero, yoshlar har bir davlatning kelajagi. Ertingiz kunning qanday bo‘lishi ularning bilim va salohiyatiga bog‘liq. Shu bois, Prezidentimiz milliy va xalqaro tadbirlardagi har bir chiqishida yoshlar masalasiga alohida e‘tibor qaratadi. Davlatimiz rahbari dunyoning nufuzli mintaqalaridagi chiqishlarida, albatta, yoshlar masalasi bilan bog‘liq yangi g‘oya va tashabbuslarni ilgari suradi. Ularda ko‘zda tutilgan vazifalarni ro‘yobga chiqarishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Ushbu nufuzli forum ana shunday sa‘y-harakatlar mahsulidir. Unda ishtirok etib, yoshlar siyosati bo‘yicha yangi bilim va tajribalar orttirildi. Bu kelgusida nafaqat milliy, balki xalqaro loyihalarda ham yoshlar huquqini himoyalash bo‘yicha faol va tashabbuskor bo‘lishimizga zamin yaratadi.

Bahor XIDIROVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri





www.yuz.uz



yuz.uznews

yuz.uznews



yuz.uz_news

BUGUNNING GAPI

REJALAR KATTA,

ko'mir yetarlimi?

Abdurauf QORJOV, iqtisodiy sharhlovchi

Boshlanishi 1-betda

O'zbekistonda umumiy hisobda 2 milliard tonnaga yaqin ko'mir zaxirasi bor. Qazib olish hajmi esa yiliga o'rtacha 5-5,5 million tonnani tashkil etib kelgan. Bugungi kunda ko'mir, asosan, ikki joyda — Surxondaryo viloyatining Hisor tog'lari va Toshkent viloyatining Angren ko'mir havzasidagi mavjud konlardan qazib olinadi. Yaqinda ular qatoriga Sariosiyo tumanidagi To'palang suv ombori yuqori qismida joylashgan yangi kon ham qo'shildi. Uning hozircha aniqlangan zaxirasi 11 million tonnani tashkil etadi.

To'palang ko'mir koni dengiz sathidan 1 ming 450 metr balandlikda joylashgan. Ayni paytda "O'zbekgidroenergo" AJ uni o'zlashtirish ishlarini davom ettirmoqda. Shu paytgacha bu yerdan iste'molchilar uchun 35 ming tonna ko'mir qazib olingan va har kuni 1000-1200 tonnasini joylarga jo'natilyapti.

— Qazib olinayotgan mahsulot, eng avvalo, kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan, ehtiyojmand oilalar, yakkayolig'iz keksalarni qo'llab-quvvatlab, ularning sovuq kunlarni bexavotir o'tkazishi uchun bepul tarqatilmog'ida, — deydi jamiyat katta mutaxassisi Hulkar Jo'rayeva. — Shu maqsadda Denov, Sariosiyo va Uzun tumanlarida "Temir daftar" va "Ayollar daftari"dagi ijtimoiy yordamga muhtoj 11 ming 441 fuqaro ro'yxati shakllantirildi. Ularning har biriga 600 kilogrammdan ko'mir tekin yetkazib berilyapti.

Mahsulot bilan ta'minlangan oilalar o'tgan yilgi qishning sovuq kunlari ancha qiyin o'tganini eslab, endi ertangi kundan ko'ngillari xotirjamligi, yaratilayotgan sharoit uchun minnatdorligini bildirimoqda.

Haqiqatan, ezgulikning yo'li ko'p, yo'rig'i ming bir. U qalb qo'ridan ziyol oladi, dillarga bahra beradi. Qarangki, yer qo'rida million yillar davomida ko'mirga aylangan tog' jinlari bugun savobli maqsadlarga ham beminnat xizmat qilaypti.

Ishlab chiqarish 2,6 foiz oshadimi?

Joriy yilning birinchi choragida mamlakatimizda ko'mir qazib olish hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14 foiz — 1,1 million tonnadan 989,1 ming tonnaga qisqardi. Prezidentimiz joriy yil 11-may kuni energiya ta'minoti masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda mazkur mah-



sulotni qazib olishni ko'paytirish bo'yicha mutasaddi tashkilotlar zimmasiga aniq vazifalarni qo'yd. Chunki 2023-yilda ko'mirga talab 1,5 barobar o'sadi, shu bois, uni qazib olishni 5,3 million tonnadan 6,5 million tonnagacha oshirishni ta'minlash lozim bo'ladi.

Mutaxassislar fikricha, mazkur topshiriq davlatimiz rahbarining joriy yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavochi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi bilan uzviy bog'liq. Qarorga asosan, 5 ming 407 ta ijtimoiy obyekt, 1 ming 147 ta issiqxon va qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi 250 ta korxonaning mahalliy ishlov tizimini ko'mir yoqilg'isiga o'tkazish rejasini tasdiqlandi.

Xususan, 2 ming 229 ta bolalar bog'chasi, 2 ming 432 ta xalq ta'limi va 746 ta sog'liqni saqlash muassasasini ko'mirga o'tkazish rejalashtirilgan. Ularni ishlov



TO'PALANG KO'MIR KONI DENGIZ SATHIDAN 1 MING 450 METR BALANDLIKDA JOYLASHGAN. AYNI PAYTDA "O'ZBEKGIDROENERGO" AJ UNI O'ZLASHTIRISH ISHLARINI DAVOM ETTIRMOQDA. SHU PAYTGACHA BU YERDAN ISTE'MOLCHILAR UCHUN 35 MING TONNA KO'MIR QAZIB OLINGAN VA HAR KUNI 1000-1200 TONNASI JOYLARGA JO'NATILYAPTI.

uchun hisob-kitoblarga ko'ra, qo'shimcha 184,4 ming tonna ko'mir kerak bo'ladi.

Qurilish materiallari tizimida 23 ta sement, 101 ta g'isht, 126 ta ohak ishlab chiqaruvchi korxonaning ko'mirga o'tkazilishi yiliga 926 million kub metr gazni tejash imkonini berishi kutilmoqda. Shu bilan birga, ushbu obyektlarning ko'mirga talabi 1,63 million tonnani tashkil qiladi.

Yaqinda Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi Yangiyahot massivida ish boshlagan, yiliga 3 million tonna sement ishlab chiqarish quvvatiga ega "Nengyuan cement" xorijiy korxonasi nainki O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyoda eng yiriklaridan biri. Mazkur loyiha uchun Xitoyning "Energy china" energetika muhandislik guruhining 351 million dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari yo'naltirildi.

Korxonada sement to'liq ko'mir hisobiga ishlab chiqariladi. Bu energiya resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Bundan tashqari, ushbu usul bilan atrof-muhitga salbiy ta'sir minimal bo'ladi.

Atmosferaga chiqadigan chiqindilarning oldini olish uchun ko'p darajali filtr o'rnatilgan.

— "O'zbekko'mir" AJ mamlakatimizdagi ko'mir qazib oluvchi va yetkazib beruvchi eng yirik hamda yetakchi korxonaga, — deydi jamiyat matbuot kotibi Ne'mat Dushayev. — U Angren ko'mir havzasida bazasida faoliyat yuritib keladi, mahsulotining asosiy iste'molchilari Angren IES va Yangi Angren IES, budget tashkilotlari, aholi, shuningdek, qisman xususiy sektor subyektlaridir.

Jamiyat tomonidan 2022-yilda 5 million 73,9 ming tonna ko'mir qazib olindi va reja 105,7 foiz bajarildi. Bu 2021-yildagiga nisbatan 274 ming tonna ko'p, demakdir. Joriy yilning to'qqiz oyi natijalariga ko'ra, "O'zbekko'mir" AJ tomonidan 4 million 217,6 ming tonna yoki reja ga nisbatan 104,3 foiz ko'p ko'mir qazib olindi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114 foizni tashkil etdi. Iste'molchilarga 3 million 775,5 ming tonna ko'mir yuborildi, bu reja ga nisbatan 112,2 foizni tashkil etdi.

Yuqorida keltirilgan raqamlarda "O'zbekko'mir" AJda hukumat tomonidan qo'yilgan rejalar ortig'i bilan bajarilayotgani, ko'mir qazib olish va yetkazib berish hajmi yil sayin ortib borayotganini kuzatish mumkin. Biroq kon ustini ochish ishlarida yillar davomida yig'ilgan muammolar saqlanib qolmoqda. O'tgan to'qqiz oyda 17,1 million kub metr yoki reja ga nisbatan 86,2 foiz ishlar bajarildi. Lekin bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 127 foiz o'sishni ko'rsatadi. Angren konlarining quvvati esa cheklangan, boz ustiga, kon texnika vositalari ma'nan eskirgan. Bu ishlab chiqarishni zamonaviy texnika bilan jihozlashni taqozo etadi. Shu bois, "O'zbekko'mir" AJga 77,1 million dollar imtiyozli kredit ajratilayotgani ayni muddad bo'ldi. Ayni kunlarda jamiyatga yangi va zamonaviy kon texnika vositalari xarid qilinmoqda. Ularning dastlabkilar yetib keldi.

Prezidentimizning 2017-yil 13-iyundagi "2017-2021-yillarda ko'mir sanoatini qayta rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida"gi qarori bilan "Sharq'un'ko'mir" AJni modernizatsiya qilish loyihasi 2021-yil boshida ishga tushishi kerak edi. Muddat cho'zilishining sababi nimada? Qolaversa, davlatimiz rahbari 2019-yil 30-aprel kuni mazkur kondagi ishlar bilan tanishgan chog'ida ham ushbu loyiha natijasida 2021-yildan boshlab bir yilda 900 ming tonna toshko'mir qazib olinishi, 600 ta ish o'rni yaratilishi haqida va dalar berilgandi. Taqvim esa 2023-yilning kuzagini ko'rsatib turibdi. Loyihaning ishga tushgani haqida aniq bir xabar yo'q...

Ta'minot va sifat bir-biriga uyg'unmi?

"Ko'mir ta'minot" MCHJga qarashli 89 ta hududiy ko'mir ombori va 13 ta shoxobcha mavjud. Aholi va byudjet tashkilotlariga mo'ljallangan mahalliy ko'mir ana shu ombor hamda shoxobchalar orqali mahalla



fuqarolar yig'inlari tomonidan berilgan, mahalliy hokimliklar tasdiqlagan jadval asosida tarqatiladi.

— 2023-2024-yillar kuz-qish mavsumi uchun aholi va byudjet tashkilotlariga jami 1 million 745,9 ming tonna mahalliy ko'mir yetkazib berish rejalashtirilgan, — deydi "Ko'mir ta'minot" MCHJ mutaxassisi Abdulkarim Abdullayev. — Shundan aholi uchun ajratilgani 1 million 220,6 ming tonna, byudjet tashkilotlariga 316,3 ming tonna, davlat-xususiy sheriklik tadbirkorlari uchun 188,5 ming tonnani tashkil etadi.

2022-yil 26-iyulda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan kelishuv bayonnomasiga asosan, aholi uchun 1 tonna ko'mir 300 ming 300 so'm, budget tashkilotlari uchun 418 ming 245 so'mdan yetkazib berilmoqda.

Shu o'rinda o'z-o'zidan savol tug'iladi: mahsulot narxi arzon, sifati va uning qo'ri qanday darajada?

— O'zbekistonda ikki xil ko'mir qazib olinadi va ishlatiladi, ya'ni toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir, — deydi Ne'mat Dushayev. — "Sharq'un'ning toshko'miri yuqori issiqlik beradi. Shu bois, ko'proq g'isht, sement zavodlari va issiqxonalar uchun mo'ljallangan. Angren koni ko'mirining

issiqligi kamroq va ana shu jihati maishiy maqsadlarda ishlatishga qulayligi bilan ajralib turadi.

Ko'mirning sifati mahsulot o'lchamlari bilan belgilanmaydi. Ayrim iste'molchilar yoqilg'ining tashqi ko'rinishi (yirik yo maydalig'iga qarab baho beradi va xato qiladi. Aslida, ko'mirning sifati degandagina, uning fraksiyasidan tashqari yuqorichanligi, kulchanligi, namligi ham e'tiborga olinishi kerak.

Iste'molchi aholiga mo'ljallangan mahalliy ko'mirning sifati ko'rsatkichlari quyidagicha: markasi — 2BZR, bo'laklar o'lchami — 25-500 millimet, bo'laklar undan katta bo'lishiga ruxsat etiladi. Namligi 45 foizgacha, kulchanligi 17 foizgacha bo'lishi shart. Yoqilg'ini ishchi holatida pastki yonish holati 3200 kilokaloriya. Tarkibida 25 millimetrdan oshiq o'lchamdagi mineral aralashmalari bo'lgan bo'laklar 3 foizgacha, maydalar miqdori 20 foizdan oshmasligi kerak.

Angren ko'mir konidan yuklangan yoqilg'i ko'mir jamlanmasiga yetkazilgach, u yerda laboratoriyadan o'tkaziladi. Har bir

vagondagi mahsulotga sifat guvohnomasi beriladi.

Qish mavsumi uchun xarid qilingan ko'mirni saqlashning ham tartiblari mavjud. Har qanday ko'mir ochiq havoda qolsa, kun sayin xususiyatini yo'qotib boshlaydi va taxminan 20 kundan keyin kukun holatiga keladi. Qattiq yoqilg'ining sifati buzilmasligi uchun uni maxsus ombor va binolarda ustini yopib saqlash tavsiya etiladi.

Ko'mirning sifatsizligi oqibatida is gazi bilan bog'liq noxush holatlar ko'payayotgani aytiladi. Is gazi muammolari ko'mirning sifati yoki qaysi konda ishlab chiqarilganiga emas, balki pechlardan noto'g'ri foydalanilishi natijasida yuzaga kelmoqda. Sodda qilib aytganda, uzoq Angren ko'miri bo'lsin, xoh import ko'mir — pech noto'g'ri ishlatilsa, is gazi paydo bo'laveradi.

Xulosa o'zingizga havola. Lekin bugungi kunda "Gap ko'p-u, ko'mir oz" degan azaliy naql qanday mohiyat-mazmun kasb etishidan qat'i nazar, amalda qattiq yonilg'i sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar belgilangan rejalar vaqtida bajarilishini ta'minlashi zarur. Shunda uylarimiz, maktab-u bog'chalarni yanada barqaror va issiq bo'ladi, korxonalarimiz chardavom ishlaydi, dasturxonimiz to'kinligi ta'minlanadi.

INSON QADRI UCHUN

YARIM ASRLIK ORZULAR USHALMOQDA

Prezidentimiz Surxondaryo viloyati saylovchilari bilan uchrashuvga kelganida ham, undan oldingi tashriflari chog'ida ham boshqa masalalar qatori ichimlik suv muammosiga alohida to'xtalgan edi. Bu bejiz emas. Ayniqsa, viloyatning janubiy hududidagi shahar-u qishloqlarda yashovchi fuqarolar iste'mol qiladigan suv talabga javob bermasligini mutaxassislar bot-bot takrorlaydi.

Vohada yer osti suv zaxiralari kama-yishi, yarim asr oldin qazilgan artesian quduqlarining eskirishi, suv quvurlarining yaroqsiz holga kelishi oqibatida, xususan, Termiz shahri va unga tutash Termiz tumanidagi o'ndan ziyod mahalla hududida quvurlardan suv goh zang, goh qum aralash oqishidan odamlar aziyat chekardi. Bunisi kamil qilganiday, ayrim hududlarga umuman suv quvurlari o'tkazilmagan. Xullas, aholi uchun sifatlari va chuchuk ichimlik suvdan bahramand bo'lish anhadan beri orzu bo'lib qolmoqda edi.

To'g'ri, viloyatning shimoliy mintaqasida joylashgan To'palang daryosi suvini tozalab, filtrlab janubiy hududdagi tuman shahar aholisini zilol obihayot bilan ta'minlash bo'yicha keng ko'lami ishlar bajarilmog'ida. Hali bu daryo suvi Termizga yetib kelgunicha ikki-uch yil o'tadi. Odamlarda esa har kuni toza suvga ehtiyoj seziladi.

Taqiilatilgan eshik kun kelib ochiladi, deganlaridek, fuqarolarning ko'pdan-ko'p murojaatlaridan so'ng mutaxassislarining qidiruv va izlanishlari tufayli Termiz tumanidagi Sabzipoya mahallasi hududidan zilol va iste'molga yaroqli yer osti suv manbasini topildi.

Yirik loyihani tez va sifatlari yo'yobga chiqarish uchun hujjatlar tayyorlandi, ekspert tashkilotlaridan xulosalar olindi. Bu yerdagi suv manbaidan Termiz shahri va Termiz tumani barcha mahallalarini to'liq bahramand etish uchun loyihada belgilangan ishlarini ikki bosqichda amalga oshirish rejalashtirildi.


Umumiy qiymati 81 milliard so'mlik qurilish-burg'ilash yumushlarini bajarish chog'ida hududda 15 ta yer osti suv quduqi qaziladi. Qariyb 35 kilometr uzunlikda magistral suv tarmog'i tortiladi. 2 ming kvadrat metr sig'imiga ega 4 ta suv saqlash



inshooti, suv sifatini doimiy monitoring qiluvchi laboratoriya, nasos stansiyasi, ming kilovattli transformator punkti hamda nazorat maskani bunyod etiladi.

— Sabzipoya mahallasi hududida Termiz shahri va Termiz tumanida yashaydigan aholini ichimlik suv bilan uzluksiz ta'minlaydigan ushbu loyiha Prezidentimizning tegishli qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan va investitsiya dasturi hamda mahalliy budjetdan ajratilayotgan mablag'lar

hisobiga amalga oshirilyapti, — deydi "Surxondaryo suv ta'minoti" mas'uliyati cheklangan jamiyati direktorining birinchi o'rinbosari Qudrat Nabiyev. — Yaqinda loyihaning birinchi bosqichidagi suv quvurlarini tortish ishlarini yakuniga yetkazilib, Termiz tumani markazi — Uchqizil qo'rg'onida hamma Yangi hayot mahallasidagi qariyb 2 mingta xonadonga obihayot kirib bordi. Natijada bugun shu hududda istiqomat qilayotgan aholi toza, sifatlari ichimlik suvdan bahramand bo'lmoqda. Loyiha doirasida



Uchqizil qo'rg'onida "Surxondaryo suv ta'minoti" MCHJning Termiz tuman bo'limi ishchi va xizmatchilari uchun zamonaviy, hamma qulayliklarga ega ma'muriy bino ham foydalanishga topshirildi. Shu paytgacha turli tashkilotlarning idorasida ijarama-ijara sarson bo'lgan xodimlar endilikda o'z ishxonalariga ega bo'lib, suv tarkibini tahlil qiladigan zamonaviy laboratoriya va jihozlari bilan ish yuritilyapti.

— Uchqizil qo'rg'oniga ko'chib kelib yashayotganimizga ham 35 yildan oshdi. O'shanda tug'ilgan o'g'il-qizlar navqiron yoshga to'lib, ro'zgor'oli, bola-chaqali bo'ldi. Lekin toza ichimlik suv iste'mol qilish barchamizning orzumiz edi, — deydi

Termiz tumanining sobiq hokimi, mehnat faxriysi Rahimkul Chorsanbiyev. — Men timga rahbarlik qilgan kezlarda ham shu muammo yechimi bo'yicha bir necha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan, ammo hal qilinmagan. Bugungi kunga kelib, Uchqizil qo'rg'on hududida ko'plab yakka tartibdagi uylar, ko'p qavlatli uy-joylar qurilib, aholi soni ortmoqda. Naivati, uzoq kutishlardan keyin qo'rg'onimiz fuqarolari shirin, zilol obihayotdan bahramand bo'lyapti. Buning uchun hukumat rahbarlariga duodamiz.

Mutaxassislarining xulosasiga ko'ra, Sabzipoya mahallasidan ancha chuqurlikda burg'ilash evaziga chiqarilgan yer osti suvi mineral va mikroelementlarga boy, biologik sof. Loyihaning dastlabki bosqichida belgilangan yumushlar nihoyasiga yetkazilishi iste'molchilarning toza suv ichishdek uzoq yillik orzularini ro'yobga chiqardi. Ikkinchi bosqich ishlarini to'liq yakunlangach, shoh'riatlar darajasi yuqori bo'lgan suv iste'mol qilib turgan 10 ta mahalla fuqarolari ham toza ichimlik suvdan bahramand bo'ladi hamda shu paytgacha ichimlik suv yetib bormagan qator hududlar aholisining suv ta'minoti uzil-kesil hal etiladi.

Ayni damlarda loyihaning navbatdagi bosqichi — qurilish-montaj ishlarini yuqori sur'atlarda davom etyapti.

Usmonali NORMATOV, jurnalist



f yuz.uznews

YUKSALISH PALLASI

INNO week

TEKNOLOGIK YECHIM

Investitsiya iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojiga yo'naltiriladi



Shahlo TURDIQULOVA, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari, professor

Boshlanishi 1-betda

Ilmiy izlanish va tadqiqotlarni moliyalashtirish dolzarb masala. Boisi, ilm-fan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun katta imkoniyatlar ochadigan kuch sanaladi. Uni rag'batlantirish iqtisodiyotni rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladigan ilg'or innovatsiyalarni yuzaga keltiradi.

Innovatsion rivojlanish strategiyasida 2023-yil oxirigacha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xarajatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 0,17 foizgacha oshirish rejalashtirilgan. 2023-yilga doir so'nggi ma'lumotlarga ko'ra, bu ko'rsatkich yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,16 foizni tashkil etdi. Buning natijasida innovatsion tadbirkorlik rivojlanib, yaratilgan yangi ish o'rinlari ko'paydi. Bunga erishishda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida innovatsiyalar ko'lamini va samaradorligini oshirish muhim omil bo'ladi.

Izlanuvchilar o'z g'oyasi loyihasini sodda tarzda taqdim qilishi mumkin

Kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirib, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jadal o'sishiga erishish mumkin. Shu bois, innovatsion texnologiyalar yaratishning g'oyadan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan kompleks tizimini ta'minlash orqali innovatsiyalarga talabni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugun istagan izlanuvchi o'z g'oyasi loyihasini sodda tarzda taqdim qilishi, yangi turdagi raqobatbardosh mahsulotlar yaratishi mumkin. Bu boradagi imkoniyatlar so'nggi yillarda yurtimiz va jahon bozorlarida "O'zbekistonda ishlab chiqarilgan" belgisi ostidagi mahsulotlar turi ko'payishiga xizmat qilmoqda.



O'tgan 2,5 yilda davlat dasturlari doirasida amalga oshirilgan tijoratlashtirish loyihalarining umumiy qiymati 375,9 milliard so'm, xususan, 2023-yilning birinchi yarmida bu ko'rsatkich 189,6 milliard so'mni tashkil etgan. Tadbirkorlik fondlari hisobidan tijoratlashtirish loyihalarini moliyalashtirish sezilarli darajada oshdi. Tijoratlashtirish loyihalariga tadbirkorlik mablag'larini hisobidan yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi 62 foizni, davlat grantlari hisobidan ajratilgan mablag'lar esa 38 foizni tashkil etdi.

Bugungi kun uchun ilm-fanni rivojlantirish davlat ahamiyatiga molik eng muhim strategik vazifa sanaladi. 2023-yil sentabr holatiga ko'ra, 92 ta loyiha doirasida 198 ta yangi mahsulot va xizmat turlari, 812 ta ish o'rni yaratildi. Xususan, o'zbekistonlik olimlarning ishlanmalari asosida yuqori texnologiyalarga asoslangan bioaktiv qoplamaga ega dental tish implantlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Mazkur mahsulot konstruktsiya jihatdan xorijiy analoqlaridan qolishmaydi va mahalliy xomashyolardan tayyorlangan biofaol qobiq bilan qoplangan.

Yana bir gap, mahalliy mikrobiolog olimlar bilan hamkorlikda ekologik toza, resurs tejamon va iqtisodiy samarali kompleks ta'sir etuvchi "Teria" seriyali bakterial o'g'itlarni suyuq va quruq holda ishlab

iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqib, davlat buyurtmasi shakllantirishini anglatadi. Buyurtmachi tomonidan muayyan mavzular e'lon qilinadi. Masalan, qishloq xo'jaligida zararkunandalarga qarshi kurashish, o'simliklar kasallanishining oldini olishga qaratilgan biologik usullarni yaratishni olaylik. Bu borada kimyoviy usullardan foydalanish kutilgan natijani bermaydi. Har bir hududning o'z



mikroflorasi, shu bilan birga, kasallik va zararkunandalari bor. Anglashiladiki, chet elda ishlab chiqarilgan preparatlarni qo'llay olmaymiz.

Yangi loyiha yaratmoqchi bo'lganlar oldiga mana shu masalalar ko'ndalang qo'yiladi. Buyurtma shakllantirilib, unda kutilayotgan aniq natijalar, loyiha summasi yoziladi va tanlov e'lon qilinadi. Tahlillarga ko'ra, tanlovlarda bitta mavzu bo'yicha 5-6 tagacha loyiha ishtirok etadi. Bu raqobat bor, eng yaxshi samara beradigan loyihani tanlash imkoniyati yuqori, degani.

Xususiy sektor tomonidan ishlab chiqarish va ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga nisbatan ikki barobardan ko'proq oshdi. Vazirlik tomonidan moliyalashtirilgan ilmiy loyihalarda xususiy sektorning ulushi 71 milliard 35 million so'mni tashkil etdi.

Ilm-fanni rivojlantirish davlat ahamiyatiga molik eng muhim strategik vazifa sanaladi. Innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etishda "tarmoq — hudud — ilmiy/oliy ta'lim tashkiloti" zanjirining yaxlit tizimini joriy etishning ahamiyati katta. 2023-yilning 9 oyi mobaynida Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan umumiy qiymati 71,95 milliard so'mlik 67 ta loyiha moliyalashtirildi hamda 31,50 milliard so'mlik xususiy sektor mablag'i (cost sharing) jalb qilindi. Loyihalar doirasida 63 turdagi yangi mahsulot yaratildi.

Yildan-yilga tanlovlarda ishtirok etish istagini bildirgan, muammolarga yechim sifatida yangi loyihalar ishlab chiqarayotgan soni ortib bormoqda. Bu quvonarli hol. Joriy yil 17-20-oktabr kunlari "InnoWeek.uz-2023" innovatsion g'oyalari haftaligi doirasida "Kuzgi tijoratlashtirish forumi" o'tkazildi. Forum doirasida yangi tijoratlashtirilgan ishlanmalar va innovatsion mahsulotlar ko'rgazmasi ham tashkil etildi. Natijada 32,6 milliard so'mlik 50 ta mahalliy korxonaga va tashkilotlar bilan tijoratlashtirish loyihalarining sotuv shartnomalari hamda 4,1 million dollarlik 7 ta eksport shartnomasi imzolandi.

Yuqori texnologiyali mahsulotlarning eksportdagi ulushi oshdi

Ilmiy hajmdor va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi innovatsion (spin-off) korxonalar sonini oshirish katta samara beradi. Bunday yondashuvning afzalligi shundaki, hududiy tarmoq tashkilotlari innovatsiyalarga bo'lgan

ehtiyojlar portfelini ishlab chiqib, Innovatsion rivojlanish agentligiga taqdim etadi. O'z navbatida, tarmoq muammolarining ilmiy yechimini ta'minlash bo'yicha ijrochi ilmiy/oliy ta'lim tashkiloti, ya'ni innovatsion "spin-off" kompaniyani tanlov asosida aniqlaydi va "1+1" prinsipi asosida tarmoq tashkilotlari bilan birga ishlab chiqilgan loyihalarni moliyalashtiradi. Mahsulot bozorida muvaffaqiyatli o'zlashtirilsa, sanoatda seriyalab ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida investitsiya portfeli ishlab chiqiladi. Bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayonda g'oya katta foyda keltiradigan mahsulotga aylanadi.

ILM-FAN

HAYOTNI QULAYLASHTIRADI, HOSILNI OSHIRADI

YANGI ISHLANMALARNING RANG-BARANG, QIZIQARLI VA FOYDALI OLAMI

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Fizika-texnika va Materialshunoslik institutidagi hamkorligida tashkil etilgan xalqaro konferensiyada zamonaviy fizikaning dolzarb fundamental va amaliy masalalariga oid keng ko'lamli muammolar tahliliga e'tibor qaratildi.



Odilxo'ja PARPIYEV, Materialshunoslik instituti direktori, fizika-matematika fanlari nomzodi

Fanlar akademiyasi 80 yilligi, shuningdek, Materialshunoslik institutining 30 yillik yubileyiga bag'ishlangan "Zamonaviy fizikaning fundamental va amaliy muammolari" mavzusidagi anjuman bir necha yo'nalishni qamrab oldi. Yadro va elementar zarrachalar fizikasi, yarimo'tkazgichlar va qattiq jismlar fizikasi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, materialshunoslik va ularning qo'llanishi mavzusi 200 nafardan ortiq xalqaro va mahalliy olim e'tibori markazida bo'ldi.

Ishirokchilar Materialshunoslik institutining "Katta Quyosh qurilmasi" noyob ilmiy obyektiga borib, uning texnologik imkoniyatlari, o'zbekistonlik materialshunos olimlarning ishlanma, texnologiya va ishlab chiqqan materiallari bilan yaqindan tanishdi. Ayniqsa, quyosh energiyasidan foydalanish va uning yordamida yaratilayotgan yuqori texnologik yangi materiallar katta qiziqish uyg'otdi. Jumladan, po'latdan 5 barobar mustahkam va 10 barobar yengil karbon tolasi ishlab chiqarish usulini zarur 2500 darajadan ortiq haroratni quyoshdan olish sohada keskin buriish sa'yosi. Shu bilan birga, aerokosmos, avtomot-



bilsizlik, uskunasoziq sanoatida katta ehtiyoj sezilayotgan material tannarxini bir necha barobar pasaytiradi. Karbon tolasi ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish va sinovdan o'tkazish bo'yicha tadqiqotlar Drezden texnika universiteti (Germaniya) bilan hamkorlikda olib borilmoqda.

Bir tomondan energiya taqchilligi sezilayotgan, boshqa tomondan tabiatda global iqlim o'zgarishi yuz berayotgan hozirgi davrda vodorod energetikasi, ayniqsa, "yashil" vodorod energetikasi yo'nalishida yetakchi laboratoriyalar izlanmoqda. Yer yuzida eng ko'p tarqalgan element bo'lishiga qaramay, vodorod, asosan, birikma sifatida mavjudligi hamda uni ajratib olish uchun katta energiya zarurligi tufayli tannarxi yuqoriligi (bir birlik vodorod olish uchun 3 birlik energiya sarflanadi) vodorod energetikasining muammosidir. Olimlarimiz suvni termokimyoviy usul bilan quyosh energiyasi yordamida parchalash va saqlash uchun O'zbekistonda mavjud materiallardan foydalangan holda yaratayotgan nanog'ovakli adsorbentlar vodorod tannarxini 3 barobargacha pasaytirishi taxmin qilinmoqda.

Vodorod energetikasi texnologiyalari va materiallarini yaratish yo'nalishida tadqiqotlar o'tkazish borasida Janubiy Koreyaning Sanoat texnologiyalar instituti, Xveyfey fan va texnologiyalar universiteti (XFR), Sheyvenariyaning vodorod energetikasi materiallari bo'yicha milliy laboratoriyasi bilan ilmiy hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Yana bir yangi yuqori texnologik yo'nalish uglerodli nanotub olish texnologiyasi bo'lib, uni yaratishda Materialshunoslik instituti olimlari bilan Dallas universiteti (AQSH), Drezden texnika universiteti (Germaniya) olimlari hamkorlikda faoliyat yuritmoqda.

Materialshunoslik instituti Fanlar akademiyasi tizimida eng yosh ilmiy tashkilot bo'lishiga qaramay, ilmiy an'analarga ega bo'lib ulgurgan. Institut olimlari yaratgan texnologiyalar sanoat korxonalarida faol joriy etilayotir. Masalan, mamlakat neft-gaz sanoati uchun im-

port o'rini bosuvchi, tabiiy gazni quritish va tozalashtirish foydalaniladigan inert keramik mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasi yaratilib, uning asosida yiliga 300 tonna mahsulot ishlab chiqaradigan sex tashkil etilgan.

Shuningdek, "Olmaliq KMK" AJ korxonalarini uchun import o'rini qoplovchi, mahalliy xomashyo asosidagi olein kislotasi ishlab chiqarish texnologiyasi yaratilgan. U yiliga 200 tonna mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega sanoat-tajriba uchastkasi tashkil etilishiga asos bo'ldi.

Institut olimlari tomonidan dunyoda birinchi bo'lib faol nanokompozitsion qo'shimchali plyonka ishlab chiqarish texnologiyasi yo'lga qo'yildi. Odatdagi plyonka bo'yicha plyonka uch qavat qilib ishlab chiqariladi. Taklif etilayotgan texnologiya bo'yicha har bir qavatga nanokompozit qo'shiladi. Nanokompozit ko'p qavatli bo'lganda, umumiy tuzilmada qavat yuzasining fazalararo ta'sirlashuvi natijasida yangi xususiyatlar paydo bo'ladi. Muayyan to'lqin uzunligidagi nur generatsiyasi, plyonkaning tashqi ta'sirlarga bardoshlilik ortishi, mikrovoriklar kamayishi shular jumlasidan.

Yaratilgan plyonka quyoshdan kelayotgan ultrabinafsha nurni qizil va infraqizil to'lqinlarga aylantiradi. Infraqizil nur tuproqqa 1 metr chuqurlikkacha singib, qizdiradi. Tuproqdan qaytgan infraqizil to'lqinlari energiyani esa plyonka tashqariga chiqarmaydi. E'tiborlisi shundaki, bu nur energiyasi 17-22 darajaga teng. Shuningdek, ultrabinafsha nurning bir fotonidan 20-30 gacha infraqizil foton hosil bo'ladi. Buning hisobiga tashqi harorat -3-7°C sovuq bo'lganda ham qo'shimcha qizdirishsiz ichki haroratni +5-7°C gacha ta'minlash mumkin. Vaholanki, an'anaviy plyonkalarda bu ko'rsatkich 0+2°C. Qizil nur miqdori oshgani sababli o'simliklar rivojlanishi 1,5-2 barobar tezlashadi.

Tashqi harorat +30°C dan yuqorilganda ham ultrabinafsha fotonlar 17-22°C darajali infraqizil fotonga aylanadi, ya'ni kompozit haroratni barqarorlashtiradi. Mazkur plyonka Toshkent, Farg'ona va Jizzax viloyatlaridagi issiqxonalarda qo'llanganda energiya sarfi 60-65 foiz kamaygani, hosildorlik esa 30-50 foiz ortgani kuzatilgan. Yangi turdagi plyonkani ishlab chiqarish texnologiyasi "Jizzaxplast-



massa" AJda sanoat-tajriba miqyosida amaliyotga joriy etilgan.

Issiqxonalarda nanofaol qo'shimchali plyonka bilan birga quyosh konsentratrlaridan foydalanib, ularni energiya tashuvchilardan multiaqo foydalanmay qizdirish, yuqori sho'rlangan va suv taqchil (dash va cho'l) hududlarda hosil olish imkoniyati mavjud. Sug'orish masalasi o'ziga suv va nam tortuvchi gidrojel qo'llash bilan hal etiladi.


Toshkent quruv zavodi va "Olmaliq KMK" AJning markaziy ta'mirlash mexanika zavodi-da yangi turdagi (12 nomdagi) payvandlash materiallari (flyuslar) barcha turdagi po'lat, qiyin payvandlanuvchi aliuminiy, titan, nikel qotishmalarini payvandlashda sinovdan o'tkazilgan. Natijada payvandlash xarajati uch barobar qisqargan.

Materialshunoslik instituti va Singapurning "JIT Engineering & Solutions Pte.Ltd" kompaniyasi bilan O'zbekistonda yaratilgan yuqori samarali payvandlash materiallari va texnologiyalarini Hindiston va Janubiy Osiyo mamlakatlari bozorida sotish to'g'risida kelishuvga erishildi. Unga muvofiq, Materialshunoslik instituti muhim konstruksiyaga (ko'priklar, bino, texnologik inshoot va qurilma) larda ishlatiladigan aliuminiy qotishmasi, zanglamas po'lat va boshqa metallar uchun yuqori samarali payvandlash materiallarini yaratish va sinovdan o'tkazish bo'yicha ishlarini bajaradi. "JIT Engineering & Solutions Pte. Ltd" kompaniyasi esa yangi mahsulotlar va texnologiyani xalqaro bozorga chiqarish va ilgari surish ishlarini bilan shug'ullanadi.

Umuman, Materialshunoslik instituti hamda "Katta Quyosh qurilmasi" noyob ilmiy obyektidagi tadqiqotlar ko'plab xorijiy ilmiy markazlar va kompaniyalar e'tiborini tortmoqda. Hamkorlikda tadqiqotlar olib borish istagini bildirayotgan ilmiy markazlarning geografiyasi kengaymoqda. Bularning barchasi mazkur ilmiy obyektda bazasida yuqori texnologiyalar va yangi materiallar bo'yicha xalqaro ilmiy xab yuzaga kelishiga mustahkam asos bo'ladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligiga

HARBIYLAR KITOB JAVONI



unda, albatta, "Boburnoma" ham bo'lishi kerak

2008-yilning fevral oyi. Yurtimizda navoiyxonlik va boburxonlik tadbirlari avjiga chiqqan. O'sha yili hukumatning Zahiriddin Muhammad Boburning 525 yillik yubileyini keng nishonlash to'g'risidagi qarori e'lon qilingan. Har bir tashkilot, korxon, oliy o'quv yurtlari, kollejl, maktablar, harbiy qismlarda tantanalik tadbirlar o'tkazish belgilangan.

dushanba kuni darsimizga marhamat qilsangiz, boshimiz osmonga yetardi", dedim.

Aziz Qayumov darrov rozi bo'ldi. Akademikning sodda va kamtarligidan hayratda edim. "Faqat Bobur Mirzoning asari haqida gapirish kerakmi?" deb so'radi. "Bobur Mirzoga oid barcha ma'lumotlarni aytasangiz bo'ladi", dedim.

Dushanba kuni IIV akademiyasi ma'ruza zalida Aziz Qayumov "Boburnoma"ga bag'ishlangan ma'ruza o'qidi. Ofitser va serjantlar allomani diqqat bilan tinglab, asar bo'yicha o'zlarini qiziqtirgan savollarni berdi. Buyuk olim har bir savolga erinmasdan javob qaytardi.

Oramizda Muhammad Shayboniyxon shaxsi bo'yicha ilmiy ish qilgan polkovnik Erkin Orifjonov bor edi. U "Muhammad Shayboniyxon nima deysiz?" degan savolni o'rtaga tashladi. Aziz Qayumov "Shayboniyxon ham tariximiz, uni Boburni o'rgandek yoshlarga o'qitishimiz kerak", deb javob berdi. Savol Bobur Mirzoning azaliy raqibi va Movarounnahrni tashlab ketishga majbur qilgan hukmdorga doir edi. Akademikning javobi izohga hojat qoldirmadi.

Ustoz ma'ruzasida asardagi harbiylar uchun muhim nuqtalarga to'xtaldi. Ayniqsa, Bobur Mirzoning mislsiz jasorati haqidagi ma'lumotlarga e'tiborimizni qarattirdi. O'n to'rt yoshida Samarqandni raqiblaridan tortib olishi, o'spirin holda Xo'bon yonidagi jangda Ahmad Tanbaldek tajribali dushmani mag'lubiyatga uchratishi, ikki yuz qirg' navkar bilan ikkinchi marotaba Samarqandni Muhammad Shayboniyxondan qaytarib olishi buyuk jasorat edi. Vaholanki, Shayboniyxonning o'n besh mingdan ziyod navkari bo'lgan. To'rt kishi Andijon tevaragida son-sanoqsiz g'animlarini tumtaraqay qochishga majbur qilganini, umuman, barchasini akademik batafsil izohlab berdi.

Sarkardaning Axsikent ostonasidagi to'qnashuvda navkarlaridan ajrab qolishi va

yakka o'zi ta'qibchilariga qarshilik ko'rsatib, ularni yoniga yo'latmagani, ikki kun mobaynida uyqusiz, och-nahor qolsa-da, ularga bo'yusnmagani va bir mo'jiza tufayli navkarlari uni Karnon kentidagi bog'larda qutqarganini aytib berdi. Bu ma'lumotlar ofitser va serjantlarni Abdulla Qodiriy ta'birini bilan aytganda, "sixrlab" (sehrlab) qo'yd. O'shanda ma'rifat soati roppa-rosa bir yarim soatga cho'zilgan, lekin ofitser va serjantlar qimirlamay akademikni tinglagan edi.

Mana, oradan qariyb o'n olti yil o'tibdi, o'sha ma'rifat darsi hamon yodimda. Bobur Mirzo ijodi bilan shug'ullangan bo'lsam-da, ustozdan bobokolonimiz haqida "tesha tegmagan" gaplarni va ma'lumotlarni bilib oldim. Yondaftarimga keraklilarini



yo'zdim va keyinchalik ilmiy maqolalarimda ulardan foydalandim. Ustozim, O'zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malik aytganidek, to'g'ri ma'noda "so'z o'g'risi" bo'lish kerak ekan. "Qayerda yaxshi fikr yoki ma'lumot topsangiz, albatta, o'sha fikrni rivojlantirib, chiroyli maqola yozing", derdi. Men shu gapga amal qilib, hanuzgacha faqat foyda ko'ryapman.

Darsdan so'ng uyiga eltib qo'yganimda, Aziz Qayumov menga "Bobur ijodiyoti"

monografiyasini hamda shaxsiy kutubxonasidan "Boburnoma" kitobini sovg'a qildi. Bu kitob boburshunoslar va umuman, adabiyot ixlosmandlari orasida mashhur akademik nashr edi. "Boburnoma"ni sizga berishimdan maqsad — boburshunos olimlar avlodi davomiyligini ta'minlash. Bobur Mirzoning ochilmagan qirralari ko'p, mana shularni yoshlarga yetkazish vazifasi sizlarga yuklanadi. Siz ham qachondir mendek yo'l tutasiz degan umiddaman", dedi qandaydir hayajon bilan.

Shu yil yozda ustozning ma'rifat darsidagi harbiylarga tegishli joylarini topib, "Boburnoma"ni qaytadan mutolaa qila boshladim. Asarni o'qish jarayonida bitta fikr paydo bo'ldi. U ham bo'lsa, bobokolonimizning jahon harbiy san'atiga qo'shgan hissasi haqida bir ilmiy risola yoki monografiya yozish edi. Mutolaa chog'i Bobur Mirzoga boshqacha ko'z bilan qaray boshladim. Bejiz dunyo harbiy akademiyalarida Amir Temur hamda Zahiriddin Muhammad Boburning jangovar faoliyatiga oid 40 soatlik maxsus kurslar tashkil etilmagan ekan. Asarda Bobur

Mirzoning qanday qilib lashkarboshi sifatida shakllanishi, sarkardalar qo'llagan strategiya va taktikalar, g'alaba qozonish san'atiga qanday erishganini kuzatishimiz mumkin.

Eng asosiysi, Bobur Mirzo dushmanlarini oz qo'shin bilan mag'lub etgan. Bu jahon harbiy san'atida o'ziga xos fenomen, bunday misollar deyarli yo'q. Birgina Panipat jangini olaylik: Bobur o'n ikki ming navkar bilan yuz ming kishilik va yuzlab jangovar



"BOBURNOMA" HARBIY XIZMACHILARGA IBRAT MAKTABINI O'TAYDI DESAK, XATO QILMAGAN BO'LAMIZ. ZERO, HARBIY VATANPARVARLIKNI BOBUR MIRZODAN O'RGANISH DARKOR. NAVOIYXONLIK, BOBURXONLIK HARBIY XIZMACHILAR ESHA FAQAT FEVRAL OYIDA EMAS, YIL DAVOMIDA BO'LISHI LOZIM.

filii bor Dehli sultoni Ibrohim Lo'diy qo'shinini tor-mor keltirgan hamda buyuk imperiyaga asos solgan. Shu ma'noda, Bobur Mirzo hayotga va ertangi kunga ishonch bilan qarashga o'rgatadi. Yaqinlari orqadan turib, xanjar urganda ham faqat yaxshilik qilish uning hayotiy shioriga aylangan edi.

Ilmiy adabiyotlarda Bobur Mirzoning "Harb ishi" asari bizgacha yetib kelmagan aytiladi. Biroq "Boburnoma"ni o'qiganda uning izarini aniq ko'rish mumkin. Fikrimcha, mamlakatimizdagi oliy harbiy ta'lim muassasalarida "Boburnoma" asarini o'rganish o'quv dasturiga kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Jamoat xavfsizligi universiteti kursantlari bilan 2020-yil mobaynida Adilbar xiyobonida Bobur Mirzo haykali poyida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning samarasi g'oyat ijobiy bo'ldi. Mazkur tadbirlar kursantlarning xizmat va o'quv intizomini mustahkamladi. Chunki harbiy xizmatchilar Bobur Mirzodan vatanparvar, adolatli, mulohazali, kechirimli, tadbirkor,

talabchan, qonunga itoatkor, maqsadga intiluvchan bo'lishi hamda ona Vatanni iddaolansiz sevishi lozim.

Harbiy xizmatchilar "Boburnoma"ni har kuni mutolaa qilib tursa, foydadan xoli bo'lmaydi. Eski o'zbek tilida yozilganini tushunish qiyin bo'lsa, 2008-yilda nashr etilgan tabdili o'qisa bo'ladi. Biroq Bobur qalamidan qanday to'kilgan bo'lsa, shunday o'qish kitobxonga boshqacha zavq beradi. Harbiy xizmatchi o'zini sarkardaning harbiy yurishlarida ishtirok etayotgandek his etadi, o'sha davr muhitiga qaytadi. Shuningdek, harbiylarga Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanini ham, albatta, o'qishni taklif qilaman. "Boburnoma" harbiy xizmatchilarning kitob javonidan o'rin olishini tilayman.

"Boburnoma" harbiy xizmatchilarga ibrat maktabini o'taydi desak, xato qilamagan bo'lami. Zero, harbiy vatanparvarlikni Bobur Mirzodan o'rganish darkor. Navoiyxonlik, boburxonliklar esa faqat fevral oyida emas, yil davomida bo'lishi lozim.

O'ZBEKISTON XALQ ARTISTI HABIBA OXUNOVA TAVALLUDIGA 80 YIL TO'LDI

NAYNING NAVOSIGA

jonim tasadduq...

Habiba opa juda sodda edi. Nigohlari ma'sum. Mashhurligi va betakrorligiga qaramay, kamtar edi. Benazir ovozi bilan har qanday avj pardalarda suza olardi. 1989-yilda Namangan viloyati "Nazokat" xotin-qizlar klubida instruktor bo'lib ish boshlaganman. Viloyatda ayollarga aloqador hamma tadbirlarni rahbarlar bilan birgalikda tashkil qilardik.

ochar edi. Undagi salobat va vazminlik bir ayolni mukammal holga keltirardi. Oynaga qarasham, Habiba bo'lib ko'rinarдим o'zimga (bu hamma qizlarda uchraydigan hol, menimcha). Habiba kuylay boshlasa, yig'lay boshlardim. Ko'zimning surmalari tarqalardi. Ruhni tamoman egallab olardi uning ovozi.

Uchrashuvlarga borganida undan hamma "Alla"ni so'rardi. Endi-endi o'ylay boshladim. Allaga har qanday insonda ham ehtiyoj bor ekan va u har qanday ko'ngilni eritishga qodir nolihs ekan.

Haftada kamida 2-3 marta ko'rishardik. Biroq haddim sig'ib, yoniga yaqinlasha olmasdim. Go'yo o't edi va menga ilashib ketadiganday. Uning san'ati esa alohida bir mavzu... Eshitish kerak edi jonli-jonli. Jonsiz qolardi tinglovchi.

Habib Sa'dullani "Habiba"latib qo'ygani nafasi bor edi opaning.

Habib aka viloyatlardagi tadbirlarga borsa, eng go'zal to'yonasi Habiba opa edi. Habib aka Namanganning pasporti bo'lsa, opa go'yo o'sha pasportning seriya raqami edi.

"O'SHA MAHALDA HAMMA SAN'ATKORLAR MAQOMDAN VA XALQ QO'SHIQLARIDAN AYTA OLGAN. UNCHA-MUNCHASI SAHNAGA CHIQQANI JUR'AT QILMASDI. SAHNA CHINDAN MUQADDAS EDI. HAMMA QO'SHIQCHILARNI TANIR VA SEVAR EDIK. ULARGA QO'RQMAV TAQLID QILSA BO'LARDI. MASALAN, SOCH TURMAKLARI, KIYINISHLARI. BIR E'TIBOR QILING SURATLARGA, OPANING SOCH TURMAKLARI DEYARLI O'ZGARMAGAN. KIYIMLARI SANOQLI BO'LGAN. YUZ PARDOZLARI BEHOLGINA EDI.

Vujudim sel bo'lib oqsin,
Habiba, aylagil xonish,
Ashulang dilga o't yoqsin,
Habiba, aylagil xonish,
Holimga el kulib boqsin,
Habiba, aylagil xonish,
Boshimga ta'nalar yog'sin,
Habiba, aylagil xonish,
O'qirman senga ming tahsin,
Habiba, aylagil xonish.

O'zbekiston xalq artisti bo'lganini 30 yoshida nishonlagan opada bu maqomning nishonasi sezilmadi. Uni mukofotlar va e'tiroflar aslo o'zgartirmagan. "Gulmiding, bulbulmiding, Habiba?" deb kitobda xitob qilgan edi bir mahallar Lutfullo Mahmud. Chindan ham bu savolni har kim berishi mumkin edi.



Shirin so'z, barno yigit,
So'zimga boling bormi?
So'zimga boling bormi?
Shaydolaring muncha ko'p
Yoki iqboling bormi?

Yoshligimiz, ne baxtki, shunaqa qo'shiqlar va maqomlarni tinglab kechdi. "Oshiq g'arib"ning deganlarini eshitib, bedor bo'lardik kechalari. "Oshiqi sargashta bo'lsang, uyquni barbod qil!" degan xitobga amal qilardik.

"Ona yurtim, husningning men shaydosi" deb aytilgan shirin izhorlarni kun bo'yi takrorlab yurardik. Hovling qayerida bo'lmay, radiodan eshitilgan zamon ayvonga yugurib kelardim. Birga jo'r bo'lardim. Yuzimni bir ko'rsangiz edi o'sha paytda...

"Ey sabo, borg'il, salomimni vafodoring'a ayt" ariyasi go'yo opa uchun yozilgandi. Har kim aytavermasdi opa bor joyda bu ashulani. Xushovoz xonanda Salima Qoriyeva bizning xotin-qizlar klubida ishlagan. Yolg'iz o'tirganda Salima opadan shuni aytib berishini so'rardim. "Bitta she'r o'qisangiz, aytib beraman", derdi. Habiba opa aytgandiki bir-birimizga mamnun qarashlar qilib olardik.

Hozirgacha dugonalar bir bo'lib qolsak, "Sizing ayvon, bizning ayvon emasmi?" ni aytib qolamiz.

O'sha mahalda hamma san'atkorlar maqomdan va xalq qo'shiqlaridan ayta olgan. Uncha-munchasi sahnaga chiqqani jur'at qilmasdi. Sahnaga chindan muqaddas edi. Hamma qo'shiqchilarni tanir va sevar edik. Ularga qo'rqmay taqlid qilsa bo'lardi. Masalan, soch turmaklari, kiyinishlari. Bir e'tibor qiling suratlarga, opaning soch turmaklari deyarli o'zgarmagan. Kiyimlari sanoqli bo'lgan. Yuz pardozlari beholigina edi.

Habiba opani tanigan-bilganlar, yaqinlari hozircha hayot, katta-katta xotira kitoblari uchun materiallar olish mumkin. Ertaga tarixning oltin sahifalaridagi go'zal yer bo'sh qolmasligi uchun bugun harakat qilishimiz kerak.

"Ibrat" bosmaxonasi huzuridagi noshirlik bo'limida ishlab yurgan kezarimda bir noxush xabar tarqaldi... Bir kun oldin kechda radio orqali "Nayning navosiga jonim tasadduq"ni tinglagandim.

Yig'ladim. Derazadan tashqariga qaragancha yum-yum yig'ladim. Dunyoningrangi qorayib ketganday edi. O'tganlarimizning ruhlari shod, oxiratlari obod bo'lsin!



Dilorom ERGASHEVA,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi,
"Do'stlik" ordeni sohibi

Yosh edim. Davralarda boshlovchilik qilardim. Uchib yurardim. Ammo shunday paytlarda Habiba opa paydo bo'ldi deguncha hovurim bosilardi. Uzoqlardan sezdirmay, nigohlarni uni ta'qib etardi.

Boshqa san'atkor ayollarday sahnaga yangi-yangi taqinchoqlar bilan chiqmasdi. Bejirmingina qashqar baldoqlari, o'sha mashhur xonatlas va yana qo' kosmos matosidan ko'ylaklari bor edi, shunda ko'rar edim. Go'yo libos opani emas, u libosni

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"
gazetalarini tahririyati" DUK

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1046.
43312 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 03:15